
Yangi saylgoh shahrimizning "tashrif qog'ozi"ga aylanmoqda

Farg'ona shahri Kashtanzor ko'chasida barpo etilayotgan "Yoshlar sayilgohi" yoshlar hamda shahrimiz mehmonlari uchun yaqin kunlarda foydalanishga topshiriladi.

"Yoshlar sayilgohi" nafaqat kunduzi, balki tunda ham o'zgacha qiyofa aks etmoqda. Ko'chada ziyo maskanlari tunu kun faoliyat olib borishi belgilangan.

Shuningdek, yoshlarning madaniy hordiq chiqarishlari, turli madaniy va ko'ngilochar tadbirlarning o'tkazilishi uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan. Turli illyuminasiyalar hamda boshqa manzaralar saylgohga o'zgacha chiroy baxsh etmoqda.

Olimjon Roziqov olgan suratlar

2023-07-06 09:14:32